

**TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIVAVIY XAVFSIZLIGI:  
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL**

**Babadjanov Shuxrat Atxamovich**

*"Ipoteka-bank" ATIB,*

*Savdoni moliyalashtirish departamenti boshlig‘i,*

*TDIU, mustaqil izlanuvchisi,*

*e-mail: Shukhrat.Babadjanov@ipotekabank.uz*

*ORCID: 0009-0004-2591-7189*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining zamonaviy holati va uning bank moliyaviy xavfsizligiga ta’siri tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2018–2025-yillarda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari, tashqi savdo saldosi, asosiy hamkor mamlakatlar, eksport-importning tovar tarkibi hamda bank tizimining moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilingan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdo aylanmasining 2018-yildagi 33,4 mlrd AQSH dollaridan 2025-yilda 81,2 mlrd AQSH dollarigacha oshishi tijorat banklari tomonidan xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring, forfeyting va valyuta operatsiyalariga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, import hajmining eksportga nisbatan yuqoriligi, tashqi savdo saldosing doimiy manfiy shakllanishi, ayrim hamkor mamlakatlar va tovar guruhlari bo‘yicha konsentratsiyaning mavjudligi banklar faoliyatida valyuta, likvidlik, kontragent, mamlakat, kredit va operatsion risklarni kuchaytiradi. Maqolada tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini bank tizimi kapitali, likvidligi, kredit portfeli sifati va tashqi sektor ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda baholash zarurligi asoslangan hamda bank moliyaviy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar**

tashqi savdo, tijorat banklari, moliyaviy xavfsizlik, tashqi savdoni moliyalashtirish, eksport, import, akkreditiv, bank kafolati, valyuta riski, likvidlik, bank tizimi, O‘zbekiston.

**Kirish**

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo aloqalarining kengayishi, xalqaro hisob-kitoblar hajmining ortishi va eksport-import operatsiyalarining murakkablashuvi tijorat banklarining moliyaviy vositachilik rolini kuchaytirmoqda. Tashqi savdo jarayonida xalqaro to‘lovlar, valyuta operatsiyalari, hujjatli hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari va boshqa trade finance instrumentlari bevosita

banklar ishtirokida amalga oshiriladi. Shu sababli tashqi savdo dinamikasi tijorat banklari faoliyatining daromadlilik bilan birga, ularning moliyaviy xavfsizligi, likvidligi, kapital yetarliligi va risklarga bardoshlilik bilan ham uzviy bog‘liqdir [1], [2].

O‘zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdo hajmining izchil kengayib borayotgani tijorat banklari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. 2018–2025-yillarda mamlakat tashqi savdo aylanmasi 33,4 mlrd AQSH dollaridan 81,2 mlrd AQSH dollarigacha oshib, qariyb 2,4 baravarga kengaygan; eksport hajmi 14,0 mlrd AQSH dollaridan 33,8 mlrd AQSH dollarigacha, import hajmi esa 19,4 mlrd AQSH dollaridan 47,4 mlrd AQSH dollarigacha o‘sgan [3]. Ushbu tendensiya xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, kafolatlar, import kreditlari, eksportoldi moliyalashtirish, faktoring, forfeyting va valyuta operatsiyalariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Shu bilan birga, import hajmining eksportga nisbatan yuqoriligi, tashqi savdo saldosing doimiy manfiy shakllanishi hamda ayrim mamlakatlar va tovar guruhlari bo‘yicha konsentratsiyaning mavjudligi banklar faoliyatida valyuta, likvidlik, kontragent, mamlakat, kredit va operatsion risklarni kuchaytiradi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining rivojlanish tendensiyalarini statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilish hamda tashqi savdo dinamikasining bank moliyaviy xavfsizligiga ta‘sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada tashqi savdo aylanmasi, eksport-import ko‘rsatkichlari, tashqi savdo saldosini, hamkor mamlakatlar tarkibi, eksport-importning tovar tuzilmasi, bank tizimi moliyaviy ko‘rsatkichlari va tashqi sektor indikatorlari o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etiladi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Tashqi savdoni moliyalashtirish va uning bank tizimi barqarorligiga ta‘siri xalqaro ilmiy adabiyotlarda savdo moliyasi instrumentlari, xalqaro hisob-kitoblar, bank risklari va moliyaviy xavfsizlik indikatorlari bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. Xususan, A. Auboin tashqi savdo operatsiyalarida trade finance instrumentlari eksport-import bitimlari uzluksizligini ta‘minlash, likvidlik cheklovlarini yumshatish va xalqaro savdo oqimlarini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rnini asoslab bergan [1]. M. Chorafas bank risklarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda likvidlik, kapital yetarliligi hamda xalqaro operatsiyalar bilan bog‘liq risklarni kompleks baholash zarurligini ta‘kidlaydi [2]. R. C. Merton va Z. Bodie moliyaviy vositachilik institutlari faoliyatida risklarni taqsimlash, likvidlikni ta‘minlash va to‘lov tizimlarining barqarorligini banklarning asosiy funksiyalari sifatida talqin etgan [3]. Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Bank for International Settlements tadqiqotlarida esa bank moliyaviy barqarorligi kapital yetarliligi, aktivlar sifati, likvidlik, daromadlilik va tashqi sektor risklari bilan bog‘liq indikatorlar orqali baholanishi asoslangan [4], [5].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham tijorat banklari moliyaviy xavfsizligi, bank barqarorligi, tashqi savdoga xizmat ko‘rsatish va eksport-import operatsiyalarini

moliyalashtirish masalalari alohida o'rganilgan. F.X. Axmedov O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish, hujjatli akkreditivlar, valyuta operatsiyalari va tashqi savdoni kreditlashda valyuta risklarini kamaytirish masalalariga e'tibor qaratgan [6]. Sh.I. Xudaynazarov tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotida eksport kreditlari, kafolatlar, eksport sug'urtasi va faktoring instrumentlarining ahamiyatini asoslagan [7]. B.U. Akbarov va D.M. Malikova tadqiqotlarida esa tijorat banklari moliyaviy hamda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda kapital yetarliligi, likvidlik, risklarni boshqarish va bank barqarorligi ko'rsatkichlarining metodologik ahamiyati yoritilgan [8], [9]. Mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy asos yaratgan bo'lsa-da, O'zbekiston tashqi savdo dinamikasi, eksport-import tarkibi, bank tizimi moliyaviy ko'rsatkichlari va tashqi sektor indikatorlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish orqali tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining bank moliyaviy xavfsizligiga ta'sirini kompleks baholash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda statistik tahlil, dinamik tahlil, taqqoslama tahlil, tarkibiy tahlil, indikatorli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Statistik va dinamik tahlil usullari 2018–2025-yillarda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari, tashqi savdo saldosini hamda ularning o'sish sur'atlarini baholash imkonini berdi. Taqqoslama tahlil orqali eksport va import dinamikasi, tashqi savdo saldosining o'zgarishi, hamkor mamlakatlar ulushi hamda eksport-import tarkibidagi asosiy tovar guruhlari o'zaro solishtirildi.

Tarkibiy tahlil usuli asosida tashqi savdo aylanmasining mamlakatlar, tovar guruhlari va eksport-import yo'nalishlari kesimidagi xususiyatlari baholandi. Bunda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi asosiy hamkor mamlakatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, shuningdek, eksportda qimmatbaho metallar, paxta, mineral yoqilg'i, mis, kimyo mahsulotlari va meva-sabzavotlar, importda esa mashina-uskunalar, elektr jihozlari, transport vositalari, yoqilg'i, qora metallar va farmatsevtika mahsulotlari tarkibining bank xizmatlariga ta'siri tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotida mamlakat, tarmoq, mahsulot va kontragent konsentratsiyasi risklarini aniqlashga xizmat qiladi.

Indikatorli yondashuv asosida tashqi savdo ko'rsatkichlari bank tizimining asosiy moliyaviy indikatorlari — aktivlar, kredit portfeli, depozitlar, kapital, kapital yetarliligi, likvidlik, muammoli kreditlar ulushi, ROA va ROE ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda baholandi. Shuningdek, tashqi sektor ko'rsatkichlari, jumladan, joriy operatsiyalar hisobi saldosini, savdo balansi, xalqaro zaxiralar va tashqi qarz dinamikasi banklarning valyuta, likvidlik, kontragent va mamlakat risklariga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv tashqi savdo dinamikasi va

bank moliyaviy xavfsizligi o‘rtasidagi amaliy bog‘liqlikni kompleks baholash imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar**


O‘zbekiston tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining rivojlanishi, avvalo, mamlakat tashqi savdo hajmi, eksport-import tarkibi va bank tizimining moliyaviy salohiyati bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli tahlilda tashqi savdo dinamikasi, asosiy hamkor mamlakatlar, eksport-importning tovar tarkibi, bank tizimi ko‘rsatkichlari va tashqi sektor indikatorlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi.

1-jadval.

**O‘zbekiston tashqi savdo ko‘rsatkichlarining dinamikasi**


Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2025-yil	O‘zgarish tavsifi
Tashqi savdo aylanmasi, mlrd AQSH dollari	33,4	81,2	qariyb 2,4 baravar o‘sgan
Eksport, mlrd AQSH dollari	14,0	33,8	2,4 baravarga oshgan
Import, mlrd AQSH dollari	19,4	47,4	2,4 baravarga oshgan
Tashqi savdo saldosini, mlrd AQSH dollari	-5,4	-13,5	manfiy saldo saqlangan

1-jadval ma’lumotlari 2018–2025-yillarda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. Bu holat tijorat banklari uchun xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring, forfeyting va valyuta operatsiyalariga bo‘lgan talab oshib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, import hajmining eksportga nisbatan yuqori saqlanishi va tashqi savdo saldosining manfiyligi banklar faoliyatida valyuta likvidligi, import to‘lovlari, kontragent va mamlakat risklarini boshqarish zaruratini kuchaytiradi.



**1-rasm. O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining asosiy hamkor mamlakatlar kesimidagi tarkibi, 2024-yil**

1-rasmga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy va Rossiyaning umumiy ulushi 36,6 foizni tashkil etgan. Bu tashqi savdo aloqalarida yirik hamkor mamlakatlar bo‘yicha ma’lum darajada konsentratsiya mavjudligini ko‘rsatadi. Tijorat banklari uchun bunday holat korrespondent banklar bilan munosabatlar, xalqaro to‘lovlar uzluksizligi, sanksion cheklovlar, logistika zanjirlari va kontragent risklarini doimiy monitoring qilish zaruratini yuzaga keltiradi.



**2-rasm. O‘zbekiston eksportining asosiy tovar guruhlari tarkibi, 2024–2025-yillar**

2-rasm eksport tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar guruhi yuqori ulushga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu tovar guruhi ulushi 2024-yilda 39,5 foizni, 2025-yilda esa 43,9 foizni tashkil etgan. Bu holat eksport tushumlarida ayrim yuqori qiymatli tovar guruhlariga bog‘liqlik mavjudligini bildiradi. Banklar uchun bunday tarkib eksportoldi moliyalashtirish, eksport tushumlari monitoringi, faktoring, forfeyting va valyuta risklarini boshqarish xizmatlarini rivojlantirishni talab etadi.

2-jadval.

**O‘zbekiston importining asosiy tovar guruhlari tarkibi, 2024–2025-yillar**

№	Tovar guruhi	2024-yil, mln I dollari	Ulushi,	2025-yil, mln I dollari	Ulushi,
1	Mashina va mexanik uskunalar	5 942,2	17,0	7 362,9	17,7
2	Mineral yoqilg‘i, neft va uni qayta ishlash ulotlari	3 953,1	11,3	3 998,8	9,6
3	Elektr mashinalar va uskunalar	3 466,1	9,9	4 115,5	9,9
4	Yer usti transport vositalari va ularning ari	3 453,8	9,9	3 806,8	9,1
5	Qora metallar	1 997,1	5,7	2 570,2	6,2
6	Farmatsevtika mahsulotlari	1 677,0	4,8	1 890,9	4,5
7	Plastmassalar va ulardan tayyorlangan mlar	1 213,1	3,5	1 571,8	3,8
8	Qora metallardan tayyorlangan buyumlar	1 153,6	3,3	1 244,7	3,0


2-jadval import tarkibida mashina va mexanik uskunarlar, mineral yoqilg‘i, elektr mashinalar, transport vositalari, qora metallar va farmatsevtika mahsulotlari yuqori ulushga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu esa tijorat banklari uchun import akkreditivlari, bank kafolatlari, import kreditlari, xalqaro to‘lovlar va valyuta operatsiyalariga talab yuqori ekanini anglatadi. Ayniqsa, mashina-uskunalar va transport vositalari importi yirik summali bitimlar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli bunday operatsiyalarda mijozning to‘lov qobiliyati, garov ta‘minoti, kontragent ishonchliligi va valyuta riski alohida baholanishi zarur.

3-jadval.

**O‘zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi**

Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2025-yil	O‘zgarish tavsifi
Bank tizimi aktivlari, trln so‘m	366,1	924,8	qariyb 2,5 baravar o‘sgan
Kredit portfeli, trln so‘m	277,0	604,0	2,2 baravarga oshgan
Depozitlar, trln so‘m	114,7	417,3	3,6 baravarga oshgan
Kapital, trln so‘m	58,4	135,3	2,3 baravarga oshgan
Kapital yetarliligi, %	18,4	17,4	prudensial darajada saqlangan
Yuqori likvidli aktivlar / jami aktivlar, %	14,2	21,1	likvidlik salohiyati oshgan
NPL, %	2,1	3,0	kredit riski saqlanib qolgan

3-jadval bank tizimida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish uchun zarur moliyaviy asos shakllanayotganini ko‘rsatadi. Aktivlar, kredit portfeli, depozitlar va kapital hajmining o‘sishi banklarning eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, xalqaro hisob-kitoblar hajmini kengaytirish va yirik korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatish salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, NPL ko‘rsatkichining mavjudligi va tashqi savdo operatsiyalarining valyuta, kontragent hamda likvidlik risklari bilan bog‘liqligi banklarda risklarni baholash tizimini kuchaytirishni talab qiladi.



**3-rasm. O‘zbekiston tashqi sektorining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi**

3-rasm tashqi sektor ko‘rsatkichlarida eksport va import hajmi kengayganini, biroq savdo balansi saldosini manfiy saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Xalqaro zaxiralarning oshishi tashqi to‘lovlar barqarorligi uchun ijobiy omil bo‘lsa-da, umumiy tashqi qarz hajmining ortishi valyuta kursi, tashqi moliyalashtirish qiymati va xalqaro foiz stavkalari bilan bog‘liq risklarni kuchaytiradi. Bu holat tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini valyuta likvidligi, import to‘lovlari, kontragent riski va mamlakat riski bilan bog‘liq holda boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tashqi savdosining kengayishi tijorat banklari uchun tashqi savdoni moliyalashtirish xizmatlarini rivojlantirish, daromadlar bazasini diversifikatsiya qilish va xalqaro moliyaviy xizmatlar bozoridagi ishtirokini kuchaytirish imkonini yaratmoqda. Biroq importning yuqori ulushi, tashqi savdo saldosining manfiyligi, ayrim mamlakatlar va mahsulot guruhlari bo‘yicha konsentratsiya hamda tashqi sektor risklarining kuchayishi bank moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashda “hajm — tarkib — risk — moliyaviy xavfsizlik” tamoyili asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

#### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tashqi savdo hajmining kengayishi tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish xizmatlariga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. 2018–2025-yillarda tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlarining o‘sishi xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank

kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring, forfeyting va valyuta operatsiyalarining bank amaliyotidagi ahamiyatini kuchaytirgan. Shu bilan birga, tashqi savdo saldosinga manfiy shakllanishi, import hajmining eksportga nisbatan yuqoriligi hamda ayrim mamlakatlar va tovar guruhlari bo'yicha konsentratsiyaning mavjudligi bank moliyaviy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi risk omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar bank tizimining aktivlari, kredit portfeli, depozit bazasi va kapital hajmining o'sishi tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish uchun zarur moliyaviy asos shakllanayotganini ko'rsatdi. Biroq muammoli kreditlar ulushining saqlanib qolishi, daromadlilik ko'rsatkichlarining tebranishi, valyuta likvidligiga bo'lgan talabning ortishi va tashqi sektor ko'rsatkichlaridagi nomutanosibliklar banklardan risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini faqat operatsiyalar hajmi yoki xizmatlar ko'lami bilan emas, balki "hajm — tarkib — risk — moliyaviy xavfsizlik" tamoyili asosida baholash maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun tashqi savdoni moliyalashtirish portfelini mamlakatlar, tarmoqlar, mahsulot guruhlari, mijozlar va valyutalar kesimida muntazam monitoring qilish zarur. Import operatsiyalarida valyuta likvidligi, akkreditivlar, bank kafolatlari va import kreditlari bo'yicha limitlar belgilash; eksport yo'nalishida esa eksportoldi moliyalashtirish, faktoring, forfeyting va eksport tushumlari monitoringini kengaytirish lozim. Shuningdek, xalqaro hisob-kitoblarda kontragent va mamlakat riskini baholash, korrespondent banklar bilan alternativ kanallarni rivojlantirish, sanksion va komplayens nazoratini kuchaytirish hamda tashqi savdoni moliyalashtirish instrumentlarini bank kapitali, likvidligi va risklarga bardoshlilik bilan uyg'un holda boshqarish tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Chamber of Commerce Academy. (2024). What is trade finance? An introductory guide. <https://academy.iccwbo.org/international-trade/article/what-is-trade-finance/>
2. Committee on the Global Financial System. (2014). Trade finance: Developments and issues (CGFS Papers No. 50). Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/publ/cgfs50.pdf>
3. International Monetary Fund. (2019). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. International Monetary Fund. <https://www.imf.org/en/data/statistics/fsi-guide>

4. Bank for International Settlements. (n.d.). Basel III: International regulatory framework for banks. <https://www.bis.org/bcbs/basel3.htm>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. <https://stat.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlari. <https://cbu.uz>
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. <https://cbu.uz>
8. World Trade Organization. (2016). Trade finance and SMEs: Bridging the gaps in provision. Geneva: World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/res\\_e/booksp\\_e/tradefinsme\\_e.pdf](https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/tradefinsme_e.pdf)
9. Auboin, M. (2009). Boosting the availability of trade finance in the current crisis: Background analysis for a substantial G20 package. World Trade Organization.
10. Merton, R. C., & Bodie, Z. (1995). A conceptual framework for analyzing the financial environment. In D. B. Crane et al. (Eds.), *The Global Financial System: A Functional Perspective*. Harvard Business School Press.
11. Chorafas, D. N. (2004). *Economic Capital Allocation with Basel II: Cost, Benefit and Implementation Procedures*. Butterworth-Heinemann.
12. Axmedov, F. X. (2018). O‘zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko‘rsatishini takomillashtirish [PhD dissertatsiyasi avtoreferati]. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.
13. Xudaynazarov, Sh. I. (2026). Tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish [PhD dissertatsiyasi avtoreferati]. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000184/bczpD1F0vvpvwPX.pdf>
14. Akbarov, B. U. (2024). Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta’minlash amaliyotini takomillashtirish [PhD dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
15. Malikova, D. M. (2024). Tijorat banklari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish [PhD dissertatsiyasi avtoreferati]. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Ташмухамедова, Я. А. (2025). ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАНЫ. *Innovation Science and Technology*, 1(10), 47-51.
16. Tashmuxamedova, Y. Yangi O‘zbekiston Sharoitida Soliq Ma’muriyatchiligi Transformatsiyasi Va Uning Moliyaviy Xavfsizlikka Ta'siri. Green

Economy and Development, 4(1), 668670. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/8756>